IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

BUXORO AMIRLIGI IQTISODIYOTIDA IPAKCHILIKNING O'RNI

Zubaydova Gulnoza Umed qizi

Buxoro Davlat Universiteti tarix yo'nalishi 1-bosqich magistranti.

e-mail:zubaydovagulnoza@gmail.com +998973021662

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20384192

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda Buxoro amirligining turli hududlarida mavjud bo'lgan pillakashlik va ipak ishlab chiqarish sohasi va uning o'ziga xos jihatlari, keyingi asrlardagi taraqqiyoti haqida so'z boradi.Turli manbalar asosida ipak ishlab chiqarish hududlari ,ularning tayyorlov texnikasi va narxlari va eksport holati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ipakchilik, tut daraxti, Zarafshon vohasi,gazlamalar, kalgay, hunarmandlar, pillakashlik fabrikasi.

Abstract: This study discusses the silk production and silk industry in various regions of the Bukhara Emirate, its specific features, and its development in the following centuries. Based on various sources, the silk production areas, their production techniques and prices, and the export status were studied.

Keywords: sericulture, mulberry tree, Zarafshan oasis, weaving, kalgai, craftsmen, silk factory.

Kirish.

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, Xitoydan ipakchilik Koreyaga, u yerdan Yaponiyaga va Eronga, shundan so'ng Osiyo davlatlari, Afrika va Yevropa davlatlariga tarqagan. Orta Osiyoga esa G'arbiy Turkmanistondan va Eron orqali ipakchilik kirib kelgan. Lekin oxirgi yillar ma'lumotiga kora ipakchilik va ipak ishlab chiqarish eramizdan avvalgi bir necha ming yillar oldin mavjud bolib,
mustaqil ravishda rivojlangan degan isbotlar keltirilmoqda. Pilla va ipak ishlab chiqarish, uni qayta ishlash O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy an'anaviy milliy hunardmandchiligi bo'lib, xususan, mamlakat hududida Farg'ona vodiysi, Zarafshon vohasida keng rivojlangan. Qadim o'tmishda tabiiy ipakdan, qo'l dastgohlarida ipak matolari to'qilgan.Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan ipak matolarining mavqei Hindiston, Misr, Eron, Yevropa mamlakatlarida yuksak baholangan.Buxoro amirligida ham xalq xo'jaligining bir tarmog'i sifatida ipakchilik sohasi mavjud bo'lgan. XX asr boshlarida pilla yetishtirilishiga qaramay sanoat ko'rinishidagi ipakchilik korxonalari bo'lmagan.

Muhokama va natijalar. Buxoroda ipakchilik rivojlanishiga katta e'tibor qaratilganligi tufayli ipak savdosi ancha katta ahamiyatga molik bo'lgan. Ipakchilik rivojlanishining asosiy manbai bu - tut daraxtlarining yetarli miqdorda bo'lishidir. Tut daraxti O'rta Osiyoda keng tarqalgan daraxt turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, Buxoro vohasi, Zarafshon vodiysi, Karmana, Miyonqolda, umuman suv ko'p bo'lgan barcha hududlarda tut daraxtlari nihoyatda ko'p o'stirilgan. P.I.Demezon ma'lumotlariga qaraganda, «Buxoro atrofi va Karmanada yetishtirilgan ipak eng yaxshi hisoblangan». [1]Buxoroda ipak xom ashyosi, ya'ni pillasining bir pudi 13–14 tilla, ipakdan yigirilgan ipning bir pudi esa 30–32 tilla turgan.

To'qimachilik voha hunarmandchiligida yetakchi tarmoq hisoblangan. Ayniqsa, bo'z, chit, olacha ko'p miqdorda tayyorlangan. Qarshi va Shahrisabzda ipak matolar tayyorlashga katta

[1] Записки о Бухарском ханстве (Отчѐты П. И. Демезона и И.В.Виткевича). М.: Наука, 1983, с.74.

e’tibor qaratilgan. G.A. Agzamova o’zining asarida XVIII asrning 70-yillarida Buxoroga tashrif buyurgan F.Yefremov shaharda turli xil gazlamalar , xususan, ipakka oltin va kumushdan bezak berib tayyorlangan yo’l-yo’l parcha shuningdek, atlas, baxmal, olacha va bo’z matolari to’qilganligi haqida ma’lumot berganini qayd etadi.Bu matolar bir-biridan rangi , to’qilish uslubi va boshqa sifatlari bilan farq qilgan.1916-yilga kelib 46 ta yirik ipak to’quv sanoat korxonalari ipak va yarim ipak matolarni ishlab chiqarishgan. XIX asrda o’zbek milliy kiyimlarini tikishda ishlatiladigan asosiy matolar qatoriga ip gazlama, ipak nimshoyi va jun gazlamalar kirgan. XIX asrning 70-yillaridan boshlab Buxoroda ipak to’quv (shoyibofi, adrasbofi, alachabofi) rivojlangan.Asosan, adras va yarim ipak matolar ishlab chiqarilagn.Hunarmanddchilik ipak matolarini ishlab chiqarish to’quv fabrikalari paydo bo’lguncha davom etan.[2]

Buxoroda toza ipak va yarim ipakdan turli xil matolar tayyorlangan. Jumladan atlas, beqasam, adras va hokazolar. Buxoroda ko’k, yashil, sariq va eng ko’p miqdorda qizil rangli matolar tayyorlashga e’tibor juda katta bo’lgan. . Deyarli barcha amallar o’z sohasinig mutaxassislari tomonidan amalga oshirilgan. Ish hajmi qancha katta bo’lsa ham texnika yutuqlaridan foydalanilmagan. Shuning natijasida qo’l mehnati bilan ishlab chiqarish yuksak darajada rivojlangan. Ish jarayonida barcha hunarmandlar o’z ishini bajargan, bu jarayonni to’quv ustaxonasaning rahbari nazorat qilgan. Katta hajmda mahsulot ishlab chiqarish uchun ustaxonalar tez-tez pilla paxta iplari sotib olishgan. Kichik ustaxonalar bozordan kalava, katta ustaxonalar esa greji (ipak(kanop)) sotib olishgan .Ustaxona egalari mato qanday to’qilishi va matoga qanday gul bosilishini nazorat qilgan, agar mato tayyorlanganda yo’l-yo’l chiziqlar bo’lib , yomon chiqsa, mato qaynatilgan suvda qayta tozalangan. Bundan so’ng qaynoq va sovuq suvda qo’yilib , qaytadan bo’yash ishlari amalga oshirilgan va yana qaytadan tekshirilgan . Agar mato yaxshi va sifatli bo’lsa , bozorga chiqarilgan.

Buxoro bozorida ko’chmanchi chorvadorlar o’z mahsulotlarini Buxoro hunarmandlari mahsulotlariga ayirboshlashgan. Buxoro bozorida parcha, duxoba, har xil chitlar, ipak matolar, temir, tilla, kumush, mis, cho’yan idishlar, qog’oz, igna, turli xil iplar yaxshi savdo qilingan. Bu davrda. Buxorodan Rossiyaga ipak matolar, ipak xomashyosi, teri xomashyosi, teri qayishlar, paxta, ip, qorako’l kabi mahsulotlar va oltin hamda kumush olib borilgan. Rossiyadan esa mix, oyna, igna, qand, shakar olib kelishgan. . Xanikovning ” Описание Бухарского ханства” asarida keltirilishicha “Bizga asosiy import qilinadigan buyumlar paxta qog'ozi, quritilgan mevalar, guruch, xom va bo'yalgan ipak, ipak, yarim ipak va paxta xalatlar,ipak kamarlar va boshqalar …”[3]

Buxoro gazlamalari ishlab chiqarishda mayin oq rangli ro’mol (kalgay) o’ziga xos bo’lgan. Tayyorlangan oq rangli mato g’alvirni eslatgan.Bu mahsulot Buxoroda ko’p bo’lmagan miqdorda tayyorlangan ,chunki kalgay uchun qaynatilmagan ipak (kulrang) Farg’onadan keltirilgan . Buxoro kalgay ro’mollar sotiladigan markaz hisoblangan.Ma’lumotlarga ko’ra , Buxoroda bu davrda 300 tagacha kalgaysozlar bo’lgan.Hunarmandchilikning bu sohasida xalfalar bo’lmagan, lekin shogird tushish uzoq davom etgan.[4]

Zarafshon okrugida ipak ipasosan “tojik va eroni ayollar charh yordamida ishlab chiqarganlar, o’zbek va qirg’iz ayollari esa urchuq yordamida. Bir ayol bir yilda mazkur uskunalar yordamida 2 dan 4 pudgacha ipak yoki yungdan ip yigirishi mumkin edi”. Ko’pchilik ayollar mazkur mahsulotlarni o’z ehtiyoji hamda sotuvga chiqarish uchun hamishlab chiqarganlar. Shunga qaramasdan ko’pgina hunarmandlar va kasanachilarning oilalari moliyaviy

[2] Sultonova N.БУХОРОДА МАТО ТАЙЁРЛАШ ҲУНАРИ . TAMADDUN SILSILASI. 2021-yil, № 3

[3] Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб.: типография Императорской Академии Наук, 1843.С 168.
[4] Сухарева О. А. Бухара. XIX - начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). М., 1966. С. 231

jihatdan qiyin ahvolda bo'lib, kam daromad hisobiga kun kechirganlar. Bunga barcha to'quvchilarning do'konlari yo'qligi va o'z mahsulotini to'g'ridan-to'g'ri bozorda sotish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi sabab bo'lgan. Ko'pchilik to'quvchi hunarmandlar o'z mahsulotlarini olib-sotuvchilar yordamida sotishgan. Bunda ular mahsulotni 30 % arzon narxda pullashga majbur bo'lishgan. Bu holat to'quvchilarning o'zlarida ishlab chiqarishdan oldin mablag' mavjud bo'lmagan holatlarda olib-sotuvchilardan pul olishga va olgan pulga mahsulotni arzon narxda berishga majbur bo'lishgan.[5]

Arxiv ma'lumotlarida keltirilishicha, "Samarqandda maxsus ipak yoki yungni tozolovchi ustaxonalar kam bo'lgan. Chunki tozalangan ipak yokiy ungga ehtiyoji bo'lgan mahalliy aholi ularni sotib olib o'zlari uylarida tozalaganlar. Bu hunar bilan maxsus shug'ullanuvchilar tikuvchilar uchun buyurtma asosida ishlaganlar va kamdan-kam holatlarda tozalangan yung yoki shuka bilarni bozorga olibchiqqanlar". To'quvchilik sanoati asosan mahalliy mahsulotlardan tayyorlangan mahsulotlarga qarab turlarga ajratilgan. Shunday sohalardan biri bu – ipakchilik va ipakdan mahsulotlar tayyorlash edi. XIX asr birinchi yarmida ipak mahsulotlarini yetishtirish bilan 400 ga yaqin xo'jalik shug'ullanganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Har bir xo'jalik 5 puddan 1,5 pudgacha mahsulotni bozorga olib chiqishgan. Shaharga ipak xomashyosi qo'shni hududlardan ham olib kelingan. Samarqandda ipakga ishlov berishda pichoqli quldan yasaluvchi uskunadan foydalanilgan. Ko'pchilik hunarmandlar ipakga ishlov beruvchi uskunani o'zlari yasashgan. Ipakni o'zidan Samarqandlik hunarmandlar bir necha hil mahsulotlarni ishlab chiqarganlar. O'z vaqtida Samarqand o'lkadagi yirik savdo mahsulotlarni yetishtiruvchi va uning bozorlarida amirlikning yirik ipak mahsulotlari savdosi amalga oshirilgan. Ipak matolardan asosan kanaus, yarim ipak matolardan beqasam va adras tayyorlangan.«Шелководство и шелковая промышленность» jurnalida yozilishicha, Rossiya pillalari Marselga (Fransiya) jo'natilar, u yerdan esa ipak holida yana Rossiyaga qaytar edi. Bu degani katta mehnat evaziga tayyorlangan pillalar katta mablag'lar sarflanib, boshqa yurtlarga yuborilib, ipak xoliga keltirilar edi.

1919 yilda O'rta Osiyoda ipakchilik sanoatini tashkil qilish uchun «Turk ipak», so'ngra «O`rta Osiyo ipagi» hissadorlik jamoasi tashkil qilindi. Bu jamoa, urug'chilik zavodlari, ipak qurti ozuqasi tutchilikni rivojlantirishda pillakashlik korxonalarini ishga tushirishga kata hissa qo'shdi. Birinchi pillakashlik fabrikasi 1921- yil Farg'onada, 1927- yil Samarqandda, 1928- yilda Buxoroda so'ngra Marg'ilon shahrida qurilib, ishga tushrildi.

Xulosa

Buxoro amirligi iqtisodiyotida ipak ishlab chiqarish muhim tarmoqlardan bo'lgan va asosiy chetga chiqariladigan mahsulotlar qatorida xom ipak va undan tayyorlangan matolar bo'lgan.XIX asr oxiri XX asr boshlarida ipakchilik bir qadar yuksalgan va uy hunarmandchiligidan asta-sekin fabrika ishlab chiqarishiga o'tgan.Bu Rossiyaning ushbu sohani rivojlantirish borasida olib borgan tadbirlari natijasi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сухарева О. А. Бухара. XIX - начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). М., 1966.
2. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб.: типография Императорской Академии Наук, 1843.

[5]Файзиев А.Ф. История Самарканд а первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 69.

3. Записки о Бухарском ханстве (Отчѐты П. И. Демезона и И.В.Виткевича). М.: Наука, 1983,
4. Файзиев А.Ф. История Самарканд а первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992.
5. Sultonova N.БУХОРОДА МАТО ТАЙЁРЛАШ ҲУНАРИ . TAMADDUN SILSILASI. 2021-yil, № 3